


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib




## Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 445,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 3,6 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **81,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 45,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1 363,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 94,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **87,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 62,8 % ) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




## Uyushmagan savdo, mln. so'm



## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

### UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 445,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 96,4 % ni tashkil etdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga 94,3 % va yirik korxonalar hissasiga 5,7 % to'g'ri keldi.


### ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 27,6 % ulush bilan **399,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

### ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Shirin shahar 1,5 % ulush bilan **22,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
		2019-yil yanvar-may
		2020-yil yanvar-may

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **1 363,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 5,5 % ga pasaygan . Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 94,3 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sardoba (99,7 %), Oqoltin (99,6 %), Guliston (99,5 %), Xovos (99,5 %) tumanlarida va Shirin sh. (99,3 %) yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan Viloyatning barcha shahar va tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Mirzaobod (120,9 %), Sirdaryo (98,5 %) Oqoltin ( 97,4 %) tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyatsi</b>	<b>1 445,3</b>	<b>96,4</b>	<b>81,7</b>	<b>145,6</b>	<b>1 363,6</b>	<b>94,5</b>
<b>Guliston sh.</b>	399,5	96,5	26,8	107,5	372,7	95,8
<b>Shirin sh.</b>	22,0	97,7	0,1	89,1	21,9	97,7
<b>Yangiyer sh.</b>	121,0	96,1	7,4	93,1	113,6	96,4
<b>Boyovut</b>	68,5	92,2	0,8	63,1	67,7	93,3
<b>Guliston</b>	51,5	84,7	0,3	16,4	51,2	86,5
<b>Mirzaobod</b>	145,4	120,9	33,9	691,9	111,5	96,6
<b>Oqoltin</b>	101,8	97,4	0,4	20,9	101,4	98,7
<b>Sardoba</b>	85,8	80,7	0,3	17,2	85,5	81,6
<b>Sayxunobod</b>	64,0	83,3	0,7	31,3	63,3	84,6
<b>Sirdaryo</b>	336,1	98,5	10,8	112,0	325,3	98,1
<b>Xovos</b>	49,7	93,0	0,2	79,8	49,4	93,1

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 45,6 % ga o'sdi va **81,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,7 % ulushiga to'g'ri keladi.



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1 363,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 5,5 % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,3 % ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sardoba (99,7 %), Oqoltin (99,6 %), Xovos (99,5 %), Guliston (99,5 %) tumanlari va Shirin shahri (99,3 %) yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 5,7 % ni tashkil etib, eng katta ulush Mirzaobod (23,3 %) tumani va Guliston shahri (6,7 %), Yangiyer shahri (6,1 %) kuzatildi.



**SIRDARYO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA  
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 704,4** ming so'm (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 5,5 % ga kamaydi) va Sardoba tumani (79,3 %) hamda Sayxunobod tumani (80,9 %), Guliston (83,2 %), Boyovut (91,0 %), Xovos (91,4 %), Yangiyer shahri (94,2 %), tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Guliston shahri (**4 404,7** ming so'm), Yangiyer shahri (**2 782,2** ming so'm) va Sirdaryo (**2 617,5** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



Hudud nomi	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	1 704,4	94,5
Guliston sh.	4 404,7	94,8
Shirin sh.	1 178,8	96,6
Yangiyer sh.	2 782,2	94,2
Boyovut	1 316,8	91,0
Guliston	396,8	83,2
Mirzaobod	1 881,4	118,8
Oqoltin	1 402,3	95,0
Sardoba	1 299,5	79,3
Sayxunobod	871,0	80,9
Sirdaryo	2 617,5	96,7
Xovos	519,7	91,4


## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **87 788,5** mln. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 37,2 % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **33 075,9** mln. so'mni (o'zgarish sur'ati 80,1 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **54 712,6** mln. so'mni (o'zgarish sur'ati 55,6 %) tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **33 075,9** mln. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **54 712,6** mln. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mln. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mln. so'm	2019-yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
<b>Siirdaryo viloyati</b>	<b>87 788,5</b>	<b>62,8</b>	<b>33 075,9</b>	<b>80,1</b>	<b>54 712,6</b>	<b>55,6</b>
Guliston sh.	17 871,2	92,7	17 853,4	114,6	17,8	0,5
Shirin sh.	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Yangiyer sh.	2 387,9	56,9	2 387,9	56,9	0,0	0,0
Boyovut	8 892,6	71,9	2 558,3	54,6	6 334,3	82,5
Guliston	11 266,2	60,4	547,6	43,4	10 718,6	61,7
Mirzaobod	1 648,3	10,1	0,0	0,0	1 648,3	10,1
Oqoltin	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Sardoba	15 954,6	68,5	407,1	20,2	15 547,5	73,1
Sayxunobod	19 800,7	113,0	3 385,0	156,6	15 896,0	106,9
Sirdaryo	5 457,1	57,4	5 440,3	66,2	16,8	1,3
Xovos	4 509,8	25,1	496,3	20,0	4 013,5	25,9

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



692,0  
mln. so'm

Tuzlamalar



9 069,6  
mln. so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



1 013,9  
mln. so'm

Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

7 254,4  
mln. so'm



Non va non  
mahsulotlari



3 875,9  
mln. so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

359,2  
mln. so'm



Tuxum

3 017,2  
mln. so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

781,5  
mln. so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

2 138,4  
mln. so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

2020-yilning yanvar-may oylarida Viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **33 075,9** mln. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**9069,6** mln. so'm) to'g'ri keldi.

448,6  
mln. so'm



Ziravorlar


4 425,1  
mln. so'm



Tovuq go'shti

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020-yilning yanvar-may oylarida Viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **54 712,6** mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **43 888,9** mln. so'mni, qo'y va echkilar **8 657,9** mln. so'mni, otlar **2 086,7** mln. so'mni, parrandalar **79,1** mln. so'mni, tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **727,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 28,3 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **135,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 54,3 %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **591,8** mlrd. so'mni (22,6 % ga kamayish), shundan mikrofirmalar savdo tovar aylanmasi **444,8** mlrd. so'mni (23,6 % ga kamayish) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi **147,0** mlrd. so'mni (19,5 % ga kamayish) tashkil etdi.

### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar


Mikrofirma

Kichik korxonalar

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




### Eng yuqori ulushga ega hududlar



**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**


Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega xududlar, Mirzaobod (122,0 %) Oqoltin (112,0 %), tumanlarida va Guliston shahri (78,8 %) kuzatildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	727,4	71,7	135,6	54,3	591,8	77,4
Guliston sh.	199,1	78,7	8,1	57,0	191,0	80,0
Shirin sh.	140,6	75,0	0,0	0,0	140,6	75,0
Yangiyer sh.	28,1	77,0	0,0	0,0	28,1	77,0
Boyovut	28,4	44,0	22,5	39,8	5,9	74,2
Guliston	23,0	69,0	4,6	45,7	18,4	79,1
Mirzaobod	64,7	122,0	31,5	297,4	33,2	78,2
Oqoltin	24,5	112,0	16,2	155,7	8,3	72,4
Sardoba	18,9	36,6	17,5	35,1	1,4	77,0
Sayxunobod	41,4	46,0	24,0	36,1	17,4	74,1
Sirdaryo	133,9	72,6	5,8	31,5	128,1	77,2
Xovos	24,9	64,1	5,4	40,7	19,6	76,1

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, 591,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan 45,2 % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 81,4 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiyer shahri (100,0 %), Shirin shahri (100,0 %), Guliston shahri (95,9 %), Sirdaryo (95,7 %), Guliston (80,0 %) tumanlarda yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Sardoba (7,6 %) tumaniga to'g'ri keldi.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi  
bo'limi**  
Tel.: (67) 225-19-70